

KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Risnazarova Aysanem Risnazarovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lif fakulteti Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Mavlonberdiyeva Nafisa Ozod qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'rishda nuqsoni bor bolalarning xususiyati, ularning darsni o'zlashtirish darajasi haqida so'z boradi. Ularning yozma savodxonligini oshirish yuzasidan turli interfaol metodlar tahlil qilinadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar va ularning yozma savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Metod, nuqson, yozish, savodxonlik, usul, korreksion metod, dars, tiflopedagogika.

Alovida ta'lif ehtiyojlariga ega bolalar uchun ta'lif va tarbiya masalasi yetakchi o'rinda turadigan masalalardan biridir. Respublikamizda ham nogironligi bo'lgan shaxslar, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar reabilitatsiyasi va ta'limga alovida e'tibor ajratiladi. Ta'lif to'g'risidagi qonunda ham nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi haqida keltirib o'tilgan. Nogironlarni reabilitatsiya qilishdan asosiy maqsad ularning to'laqonli turmush kechirishi, o'z huquq va potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat. Ta'lif sohasiga to'xtalar ekanmiz, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan maxsus soha korreksion pedagogika shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lifni tashkil etish jarayonida avvalo ta'lif muassassi nuqsoni bor bolalarning jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olishi lozim. Ko'rish imkoniyati cheklanganlar brayl alifbosi yordamida o'qish va yozishni o'rganadilar. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama o'rganish, ularning ruhiyatini yaxshi bilish pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Odatda ko'zi ojiz bolalarda diqqat, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, hayol, tafakkur va nutq kabi jarayonlarda me'yordan chetga chiqish holatlari kuzatiladi. Shu boisdan ham ularning o'zlashtirishida muammolar uchraydi. Muammolarni bartaraf etishning bir necha usullari korreksion pedagogikada tahlil etiladi. Ko'zi ojizlar yoki ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozish va nutq jarayonida biroz qiynaladilar. Ularning nutqi ravon bo'lishi mumkin, lekin yozish jarayonida qiyinchilikka duch kelishlari turgan gap. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan pedagogikaning maxsus sohasi tiflopedagogika shug'ullanadi. Ko'rishdagi nuqsonlar odatda tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar irsiy kasalliklar, homiladorlik davridagi infektion kasalliklar sababidan kelib chiqadi. Orttirilgan nuqsonlar esa ko'rav nervi kasalliklari, markaziy asab tizimi shikastlanishi natijasida paydo bo'ladi. Umumiy tarzda ko'rishda nuqsoni bor bolalarni ikki guruhga ajratish mumkin: ko'zi ojizlar va zaif ko'ravchilar.



Ko‘zi ojizlar ham o‘z navbatida bir necha toifaga bo‘linadi: total ko‘rlar va qisman ko‘zi ojizlar. Ko‘zi ojizlar mактабида о‘qитиш о‘зининг maxsus tamoyillariga egadir. Bu vazifalar rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan, shuningdek rivojlanishdan ortda qolgan funksiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bolalarni guruhlarga differensiyalashga mo‘ljallangan. Tarbiyachi va tiflopedagog tomonidan shakllantirilayotgan nutq va predmetlar bazasi logoped mashg‘ulotlarida keng qo‘llaniladi va takomillashadi.[3]

Har qanday nuqsonli bolalarni ta’lim-tarbiya yo‘li bilan rivojlantirib borish mumkin. To‘g‘ri tashkil etilgan korreksion chora-tadbir ularning hayotda o‘z o‘rnini topib ketishiga zamin yaratadi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning yozma savodxonligini oshirishdan oldin ularda ravon nutqni shakllantirib olish lozim. Chunki bola tasavvuridagi narsalarni nutqiga ko‘chiradi va nimani yozishi tasvirlashi mumkin ekanligini so‘zlar, nutqi orqali tushuntiradi. Ko‘r va zaif ko‘rvuchilarning nutqida tovush talaffuzi bilan bog‘liq bir qator kamchiliklar uchraydi. Logopedik mashg‘ulotlarda ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalarda nutq kamchiliklarda rinolaliya, duduqlanish, tovush kamchiliklari bartaraf etiladi.[3] Ma’lumotlarga ko‘ra nutq kamchiliklari ko‘rvuchi bolalarga qaraganda chuqur kamchiligi bor bolalarda nisbatan ko‘proq uchraydi. Lug‘at boyligida mavjud bo‘lgan kamlik umumlashtiruvchi tushunchalar asosida hikoyalari tuzish jarayonida xatolarni keltirib chiqaradi. Normal holatda ko‘rvuchi va ko‘rishda nuqsoni mavjud bolalarning nutqidagi nuqsonlarni o‘zaro solishtirsak, ularning o‘xshashligi mavjud ekanligini bilishimiz mumkin. Demak, ko‘rishda nuqsoni bor bolalar nutqi to‘g‘rilash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichga ega.

Shuni alohida ta’kidlashimiz joizki, bolaning nutqi va yozish qobiliyatida muloqot katta ahamiyatga ega. Muloqot jarayonida bola so‘zlarning talaffuziga, orfoepik xususiyatlari e’tibor beradi. Kundalik muloqotda ishlatadigan so‘zlarning talaffuzi va imlosida xato va kamchiliklar deyarli uchramaydi. Avvalo, muloqot taqlidsiz bo‘lishi kerak. Boisi bola kattalar bilan muloqot jarayonida ularning ishlatgan so‘zlarini keyinchalik o‘zi takrorlab ko‘radi. Kattalardagi xato va kamchiliklar mavjud holatlar bola tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib olinadi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqi bilan ishlashda pedagog va logoped hamkorligi muhim. Ba’zi holatlarda bola so‘zlar talaffuzida juda qiyin muammolarga duch keladi. Bunday paytda logoped unga to‘g‘ri yo‘nalish beradi va uning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladi.

Bolaning nutqi rivojlangani sayin uning tasavvuri ham kengaya boradi. Tasavvur kengayashida turli usullarni qo‘llash mumkin. Tabiiyki, ko‘rishda nuqsoni bor bolalar eshitish qobiliyati yoki sezish orqali atrof-muhitni anglab yetadi. Ular uchun maxsus chora-tadbirlar qo‘llash maqsadga muvofiq. Nutqi va tasavvuri rivojlangan bolalar yozishda unchalik qiyinchilikka duch kelishmaydi. Nutq shuning uchun ham katta ahamiyatga ega deb e’tirof etiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, ko‘rish imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus brayl alifbosi mavjud. Brayl alifbosidan foydalangan holda ko‘rish qobiliyati zaif odamlar yozma so‘zni o‘qishlari, ko‘rib chiqishlari va o‘rganishlari mumkin. Tinish belgilari, imlo, paragraph va izohlar o‘rganiladi.

Yillar davomida ko‘rishda muammosi borlar uchun o‘qish va yozishni ta’minlab beradigan bir qancha usullarga urinishlar bo‘ldi. Lekin ularning ko‘pchiligi muvafaqqiyatsizlikka uchragan. Tarixga nazar solsak brayl yozuvi 1800-yili paydo bo‘lgan. Alifboning har bir harfiga alohida naqsh tayin etilgan. Alifbo bevosita lotin alifbosidan olingan. Brayl alifbosining ixtirochisi Lui Brayl va baxtsiz hodisa tufayli ko‘r bo‘lib qolgan. O‘zidan oldingi yaratilgan ko‘rish imkoniyati cheklanganlar uchun yaratilgan alifbo unga ancha qiyinchiliklarni tug‘dirdi. Shundan so‘ng 1829-yili Lui Brayl o‘z tizimini tinish belgilari va raqamlar hamda nota alomatlari bilan to‘ldirib u haqida kichik ilmiy ishini e’lon qildi. Ko‘rish imkoniyati cheklanganlar va ko‘rishda nuqsoni borlarning yozma savodxonligini oshirish, ularning ravon nutqini ta’minalash uchun ularning tasavvurini boyituvchi manbalar bo‘lishi kerak. Kattalar bilan muloqot jarayonida kattalar nutqiga



e'tiborli bo'lishi lozim. Bolalar bilan muloqotda ularning bu davrda taqlidchi xarakteriga ega ekanligini unutmaslik kerak.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar savodxonligini oshirishda muloqot va tasavvur katta ahamiyatga ega. Anomaliyalar mavjud bolalar rivojlanishdan biroz orqada bo'ladilar. Umuman rivojlanishida muammo bo'lgan bolalar ta'lif tizimida bir qator qiyinchiliklar uchraydi. Avvalo, ularning ota-onalari bilan bo'lgan munosabatlarda ziddiyatlari vaziyatlarni ko'p guvohi bo'lamiz. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan yoki ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarda ham ularning ota-onalaridan ta'lif olishlari uchun muayyan cheklar mavjud. Inklyuziv ta'lif nuqtayi nazaridan esa bola hamma uchun umumiyligini sinfiga borganda o'zining tengqurlari orasida uyalish hissi paydo bo'ladi. Buning natijasida ularning nutqida duduqlanish yoki boshqa salbiy alomatlar ham paydo bo'lishi mumkin. Bu ham inklyuziv ta'lifda uchraydigan muammolardan biridir. Imkoniyati cheklangan bolalar ham hamma kabi ta'lif olish huquqiga ega. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan muloqotda bo'lish, ularning tasavvurini yanada kengaytirish maqsadida turli xil matnlarni o'qib berish yoki ularning o'ziga matnni o'qittirish mumkin. Orttirilgan nuqsonli bolalar tasavvurida predmetlar aniq gavdalanganadi, to'la shakl-shamoyil namoyon bo'ladi. Ular yozishda ham harflardan ozmuncha bo'sada xabardor bo'lishadi. Brayl alifbosi ixtirochisi Lui Brayl musiqaga qiziqishi baland edi. Shuning uchun ham u alifboni yaratishda notalar tizimiga o'xshashlikni yarata olgan. Ushbu alifbodagi asosiy jihat ko'rsatkich barmoqdagi sezgi xususiyatining yuqori darajadaligi. Biz pedagoglar shuni unutmasligimiz lozimki, ko'zi ojiz bolani atrof-muhitda harakatlanish ko'nikmasini shakllantirishimiz ahamiyatli masaladir. Har qanday bilish sezgi orqali amalga oshadi. Ko'zi ojiz bolalarni savodga o'rgatish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, qo'l motorikasini rivojlantirish, ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish va rivojlantirish lozim. Xullas, inson har qachon, har qanday vaziyatda ilm olishdan to'xtamasligi zarur. Bu uchun imkoniyatlar ham yetarlicha. Demak, ko'rishda nuqsoni bo'lgan yoki ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirishda va birinchi navbatda mustaqil hayotga tayyorlashda ularning sezgilarini oshiruvchi usullarni qo'llashimiz samarali natija beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjanova va boshqalar "Maxsus pedagogika" T. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2014
2. V.S.Raxmonova. "Defektologiya asoslari" T- 2014
3. M.Y. Ayupova "Logopediya" T "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashriyoti , 2007
4. D.R. Madazizova "Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari" T: " O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashriyoti, 2018
5. www.pedagoglar.uz internet sayti.

